

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE METHIDIUM PROJECT IN IMPROVING THE CREATIVITY OF LISTENERS

Supiyeva Bukholida Abduvaliyevna

Tashkent City National Center for teaching educators to new methodologies,
head of the Department of methods of teaching languages.

ANNOTATION

“In modern pedagogy, the increasing professional requirements for the teacher, the need to form his creative activity, realize his creative abilities and develop an individual style of activity imposes new tasks on the system of professional development” [96]. The personality of the teacher is required to have important professional qualities – communicativeness in the formation of the student's base competencies, figurativeness in talking about events, broad thinking in logical thinking, openness to innovation and innovation, the ability to integrate a vertical being with physical life and converge, skillfully combining all this.

Sokolnikovaning so‘zlariga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishni ta‘minlash yo‘llarini izlash va topish alohida ahamiyatga ega [126]. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilab beradigan jarayon – ijodiy faoliyat bo‘lib, uning eng muhim tarkibiy qismi kasbiy mahoratdir. M.G. Tuseyevaning fikricha, “Umumta‘lim muassasasi (talabgor) o‘qituvchisidan innovatsion faoliyatda, qiyin bo‘lgan sharoitlarda ham o‘quvchilarning o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy va pedagogik fazilatlarni rivojlantirishni talab qiladi” [127]. Haqiqatdan ham malaka oshirish jarayonida ijodiy muhitni tashkil etishda tinglovchining kasbiy bilimi darajasi inobatga olinishi zarur.

Bizga “**Methodium**” (“*Metod*” yunoncha *metodos* - ta‘limot, “*ium*” lotincha



“joy”) loyihasi – tinglovchining bugungi kundagi ehtiyoji va qiziqishi, bilimi va pedagogik mahoratlarini hisobga olgan holda, mustaqil kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

2.4-rasm. “Methodium” loyihasining tuzilmasi


“**Methodium**” loyihasi – o‘qituvchining mustaqil ravishda uzluksiz kasbiy rivojlanishining yangi shakli hisoblanadi. “Methodium” loyihasi mazmuni tinglovchini davlat malaka talablariga asosan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida nazariy-amaliy va metodik jihatdan qayta tayyorlash, kasbiy rivojlantirish va ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. L.S. Vygotskiy, K.K. Platonovlar kasbiy rivojlantirishda shaxsning turli faoliyat turlarining muhim jihatlarini olish kerakligini aytgan.

“**Methodium**”ning nazariya bo‘limi – fanning ilmiy-nazariy jihatini bo‘yicha tinglovchini qayta tayyorlaydi va kasbiy rivojlantiradi.

“**Methodium**” metodika bo‘limi – nazariy faoliyatni amaliyot bilan bog‘lashning turli-tuman yo‘nalishlarini o‘rgatish va kasbiy rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, “Methodium”da turli innovatsion nazorat turlari va ta’lim trenajyorlari mavjud. Shuning uchun “Methodium” ish faoliyatini 4 ta yo‘nalish bo‘yicha olib boradi: *nazariya, metodika, nazoratlar va trenajyorlar*. (2.10-jadval)

2.10-jadval.

“Methodium”ning tarkibiy shkalasi.



Tinglovchilar mazkur yo‘nalishlarda o‘quvchilari bilimi va tafakkurini trenajyorlar yordamida rivojlantirish va turli nazorat turlari asosida baholashning yangicha yo‘llarini o‘rganadilar. Pedagogik tizimning ochiqligi bilan bog‘liq holda tinglovchi shaxsining rivojlanishiga ko‘plab tashqi omillar ta‘sir ko‘rsatadi: *oila, ko‘cha, ommaviy axborot vositalari*. Eng muhimlaridan biri tinglovchining shaxsiyati va uning pedagogik mahoratidir.

Pedagogik mahorat - o‘qituvchining aniq ta‘lim vazifalarini hal qilishda pedagogik funksiyalarni to‘liq amalga oshirishga tayyorligi qobiliyatining o‘lchovidir [169: –81-83- b.]. O‘qituvchi mahoratining **mezonlari** quyidagilar bo‘lishi mumkin: yo‘nalish bo‘yicha – maqsadga muvofiqligi, natijalar bo‘yicha – samaradorlik, vositalarni tanlash bo‘yicha – optimallik, faoliyat mazmunidan kelib chiqib – ijodkorlik. Pedagogik professionallik–pyedagogning pedagog sifatidagi kasbiy mahorati butun kasbiy faoliyati davomida ularning ijtimoiylashuvi omili sifatida shakllanadi.

“Metodium” loyihasining asosiy maqsadi – tinglovchilarda natijasi ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan tasdiqlangan pedagogik, o‘quv-uslubiy hamda psixologik ko‘nikmalarni uzluksiz rivojlantirish va ijodiy faoliyatini takomillashtirishdan iborat.

“Metodium”da shug‘ullanish – loyihada nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki tinglovchining ta‘lim-tarbiya bo‘yicha dunyoqarashini kengaytirish, umumpedagogik-psixologik mahoratini oshirish hamda o‘rganish va o‘rgatishdir.

“Metodium” loyihasining vazifalari –dars o‘tishning ilg‘or texnologiyalarini, xalqaro ilg‘or tajribalarni, o‘quv jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish masalalarini, dars sifati va mazmunini oshirishning innovatsion yo‘llarini, innovatsion AT va IT imkoniyatlarini, kitobxonlikni hamda virtual borliqni jismoniy hayot bilan konvergentsiyasini o‘rgatadi va o‘rganadi. *“Metodium” loyihasining tuzilishi.* “Metodium”ning samaradorligi uning ichki tuzilishida namoyon bo‘ladi. *“Metodium” loyihasining asosiy elementlari* – ishtirokchilar, administratsiya va ularning o‘zaro munosabatlari – o‘zaro ta‘siri, butun «Metodium»ning tashkiliy tuzilishidir.

2.11-jadval.

“Metodium” loyihasining asosiy elementlari



Ishtirokchilar - bu “Metodium” faoliyatida qatnashadigan tinglovchilar. Shuningdek, “Metodium” onlayn tarzda ishlaydi va tinglovchi o‘zini-o‘zi nazorat qiladi, monitoring qiladi hamda baholaydi. Shuning uchun ta’lim jarayoni shaffof tarzda olib boriladi.

“Metodium” tinglovchining shart-sharoiti, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga oladi. Shuning uchun tinglovchi o‘zi xohlagan paytda uzluksiz kasbiy mahoratini oshirib boradi.

O‘quv jarayoni davomida individual o‘rganish usullari – birlamchi bo‘ladi. “Metodium” bazasini muallif har oyda yangilab turadi. Ular orasidan “Metodium” faoli, hamda har xil muddatlarda ishtirok etuvchi obunachilar ham uchraydi. Ishtirokchilar faollik darajasiga qarab loyiha rahbari tomonidan rag‘batlantirilib boriladi.

Shuningdek, tinglovchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning ma’naviy qadriyatlarini rivojlanishida QR kodli topshiriq va ijod namunalari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. “Metodium”dagi ishtirokchilar o‘z maqsadlarini belgilaydilar, vaziyatni tahlil qiladilar, qaror qabul qiladilar, xatti-harakatlar va faoliyat variantlarini o‘zlari uchun tanlaydilar, onlayn-treninglarda qatnashadilar, o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini ochib beradilar.

“Metodium” – pedagogik ijod vositasidir. Chunki u yaxshi, mustahkam professional bilimni beradi, ya’ni ijodkorlik uchun boshlang‘ich motivatsiyani

beradi va u tez orada o'qituvchini ijodkorlik darajasiga ko'taradi. Ishtirokchi o'z ijodiy faoliyatini boshlaydi. "Methodium" loyihasi o'qituvchilar bilan hamkorlikda metodik-ta'minotning yangi shakllarini ishlab chiqmoqda: "Intervyu munozara"lari, "Ma'ruzachilar finishi", "Kompyuter o'yin"lari, "Pedagog montaj", "IQ – o'yin", "Tafakkur bahsi", "VR/AR – ta'lim" va boshqalar.

AR – to'ldirilgan reallik , VR – virtual reallik (ro'yoning elektron shakli). Bunday "namunali vaziyatlar"ning xarakterli xususiyati jamoa hayotining vaqt bilan chegaralangan segmenti bo'lib, unda ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarang, shiddatli hayot kechiradilar. «Methodium» minimal amaliy ko'nikmalarni taqdim etadi va o'z-o'zidan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun keng chegaralarni ochadi. "Methodium"ning uslubiy komponenti nazariy, amaliy, uslubiy va o'yin amaliyotlarini ishlab chiqadi va darslarni loyihalashtirib, rejalashtiradi. Vebinar darslari ishtirokchilarning talablari, ehtiyojlari va qiziqishlari asosida tashkil etiladi.

"Methodium" kasbiy rivojlanishni ta'minlashda – ishtirokchi faoliyatiga xalaqit bermaslik, xohish va istaklariga asoslanganligi, ruhiyatga salbiy ta'sir etmasligi hamda qiziqishni yo'qotmaslikka asoslangan. Muloqot muammolarini falsafiy tahlil qilib, A.N. Dunayeva o'zining ikkita asosiy shaklini ajratib turadi: aloqa – muloqotning monologik versiyasi va to'g'ri muloqot – dialog[169].

"Methodium"ning samaradorligi tinglovchilarning quyidagi talablarga rioya etishiga bog'liq: "Methodium"ning asosiy mazmunini belgilash tinglovchi va tashkilotchining hamkorligiga bog'liqdir. Shuningdek, "Methodium" loyihasida ijodiy muhitni yaratish yo'llarini o'rgatish bo'yicha kompyuter o'yinlaridan foydalaniladi.

"Methodium" loyihasida mashg'ulotlarni o'tkazish usullari. Usul deganda faoliyatning muayyan turini oqilona bajarish yo'lini tushunamiz.

Tinglovchilar pedagogik qobiliyatlarini inobatga olgan holda "Methodium" loyihasi turli shakllardan foydalanib tinglovchilarni kasbiy rivojlantiradi: onlayn, gibrid, onlayn-viktorina, vebinar, onlayn-seminar. "Methodium" loyihasi texnologik

jihattan har bir kasbiy mahorat uning avtomatlashtirilgan komponentlari sifatida tegishli malakalarga asoslanadi.

2.12-jadval.

“Metodium” loyihasida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish darajalarining tasnifi

№	Tasnif	Tasnif mazmuni
1.	Tafakkurning boshlanishi	Bu bosqich maqsadni aniq tushunish, lekin unga qanday erishishni bilmasligi uchun ma’lum xatolarga yo‘l qo‘yish bilan tavsiflanadi
2.	Umumiy qobiliyatning sustligi	Ishtirokchi harakatni qanday bajarishni aniq tushunadi, lekin uning bajarilishi noto‘g‘ri va beqaror, ko‘plab keraksiz harakatlar amalga oshirilganligi bilan tavsiflanadi
3.	Ko‘nikmalarni avtomatlashtirish	Keraksiz harakatlar yo‘q qilinadi, mahoratni ijobiy o‘tkazish uchun imkoniyatlar paydo bo‘ladi
4.	Yuqori avtomatlashtirilgan mahorat	Harakatlarning aniq, tushunarli, barqarorlashgani bilan tavsiflanadi
5.	Majburiy emas	Bu tinglovchilarning har biri uchun maqbul bo‘lgan individual ish uslubini mustaqil izlash bilan bog‘liq
6.	Ikkilamchi malakani avtomatlashtirish	Ushbu bosqichda to‘rtinchi bosqichning xususiyatlari takrorlanadi va harakatlarni bajarishda individual xarakteri namoyon bo‘ladi

Buning uchun keling, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish darajalarining tasnifini ko‘rib chiqamiz. Ishtirokchilar - bu “Metodium” faoliyatida qatnashadigan o‘qituvchilar. Shuningdek, “Metodium” onlayn tarzda ishlaydi va tinglovchi o‘zini-o‘zi nazorat qiladi, monitoring qiladi hamda baholaydi. Shuning uchun ta’lim jarayoni shaffof tarzda olib boriladi. “Metodium” tinglovchining shart-sharoiti, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga oladi. Shuning uchun tinglovchi o‘zi xohlagan paytda uzluksiz kasbiy mahoratini oshirib boradi. O‘quv jarayoni davomida individual o‘rganish usullari – birlamchi bo‘ladi. “Metodium” bazasini muallif har oyda yangilab turadi. Ular orasidan “Metodium” faoli, hamda har xil

muddatlarda ishtirok etuvchi obunachilar ham uchraydi. Ishtirokchilar faollik darajasiga qarab loyiha rahbari tomonidan ragʻbatlantirilib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, “Metodium” loyihasi mustaqil kasbiy rivojlanishni taʼminlashda – tinglovchi faoliyatiga xalal bermaslik, xohish va istaklariga asoslanganligi, ruhiyatga salbiy taʼsir etmasligi hamda qiziqishni yoʻqotmaslikka asoslangan.

Tinglovchining ehtiyoji “Metodium”ni metodik-taʼminot bilan boyitishga imkon beradi. Shunga koʻra, “Metodium”da mashgʻulotlarning mavzulari, shakllari va usullarini tinglovchining oʻzi belgilaydi hamda “Metodium” domingida tajriba-almashish imkonini beradigan ijodiy muhitni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Radjiyev A.B. Xalq taʼlimi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumtaʼlim maktablari direktorlari misolida): ped. fan... (PhD) diss. avtoref. – Toshkent.: 2020. – 52 b.

2. Ibragimov A.A. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv asoslari // Monografiya – Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2022. –160 b.

3. Alkarov.E.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish: ped. fanl. boʻy. fals. dokt. (PhD). – T.: 2021. – 60 b.

4. Supiyeva B.A. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini takomillashtirish: ped. fanl. boʻy. fals. dokt. (PhD). – T.: 2023. – 85 b.